



**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA
NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR
BILAN ISHLASHNING ILMIIY-AMALIY
ASOSLARI**

Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna

Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

**SCIENTIFIC AND PRACTICAL FOUNDATIONS
OF WORKING WITH CHILDREN WITH
SPEECH DISORDERS IN A PRESCHOOL
EDUCATIONAL ORGANIZATION**

Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna

International University of innovation lecturer

**НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ
РАБОТЫ С ДЕТЬМИ С НАРУШЕНИЯМИ
РЕЧИ В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ
ОРГАНИЗАЦИИ**

Каххарова Озода Абдимуминовна

*Преподаватель Международного инновационного
университета*



E-mail: o.qaxxorova@gmail.com

Orcid: 0009-0009-7575-9795

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17162381>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutqiy nuqsonlarning sabablari, ularni bartaraf etish yo'llari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida logopedik xizmatlar orqali olib boriladigan korreksion ishlar yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar nutqiy nuqsoni bo'lgan bolalarni erta aniqlash va ularga sifatli pedagogik xizmat ko'rsatishda qanday imkoniyatlar yaratganiga ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, logoped, nutqiy nuqson, korreksion ishlar, rivojlantiruvchi o'yinlar, davlat islohati, inklyuziv ta'lim.

Abstrakt: This article highlights the causes of speech defects in preschool children, ways to overcome them, and the correctional work carried out by speech therapy services in preschool educational organizations. It will also talk about how the reforms carried out in Uzbekistan in the field of preschool education have created opportunities for the early detection of children with speech disorders and the provision of high-quality teaching services to them.

Keywords: preschool education, speech therapist, speech defect, correctional work, educational games, state reform, inclusive education.

Аннотация: В данной статье освещаются причины возникновения дефектов речи у детей дошкольного возраста, пути их преодоления, коррекционная работа, проводимая логопедическими службами в дошкольных образовательных организациях. Также будет рассказано о том, как проводимые в Узбекистане реформы в сфере дошкольного образования создали возможности для раннего выявления детей с нарушениями речи и оказания им качественных педагогических услуг.

Ключевые слова: дошкольное образование, логопед, дефект речи, коррекционная работа, развивающие игры, государственная реформа, инклюзивное образование.



KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim sohasiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tibor qaratilmoqda. 2017-yilda alohida vazirlik – **O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi** tashkil etilgani sohada sifat o‘zgarishlariga turtki berdi. Vazirlik faoliyati natijasida maktabgacha ta’lim muassasalari soni ko‘paydi, ta’lim sifati oshdi, davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etildi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar joriy qilina boshlandi.

Ayniqsa, 2019-yilda qabul qilingan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”da alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash, logopedik xizmatlar sifatini oshirish, ularni maktabga tayyorlash masalalari aniq belgilandi. Bu islohotlar natijasida nutqiy nuqsoni bo‘lgan bolalarni erta aniqlash, ularga individual yondashuv asosida yordam ko‘rsatish imkoniyatlari kengaydi.

TADQIQOT NATIJALARI

Bolalarning yosh xususiyatlari va nutq buzilishiga olib keluvchi omillar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda uchta asosiy yosh guruhiga bo‘linadi va har bir bosqichda nutqiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

1. Kichik guruh (3–4 yosh)

Nutq xususiyatlari: Bu davrda so‘z boyligi endigina shakllanadi, oddiy gap tuzish boshlanadi, tovushlar talaffuzi sust bo‘lishi mumkin.

Buzilish sabablari:

- Katta yoshli bilan yetarli muloqot qilinmasligi;
- O‘yin faoliyatining cheklanganligi;
- Uy sharoitida bolaning nutqiga yetarlicha e’tibor berilmasligi.

Mos artikulyatsion mashqlar:

- “**Ot ochiladi**” – og‘izni keng ochib yopish, tilni harakatlantirish;
- “**Soat**” – til uchini chap va o‘ng lab burchaklariga urish;
- “**Daraxt**” – til uchini yuqori tanglayga tekkizib ushlab turish.

2. O‘rta guruh (4–5 yosh)

Nutq xususiyatlari: Gap tuzish ko‘nikmalari shakllanadi, fe‘l, sifat, son kategoriyalari faol qo‘llaniladi. Ba’zi tovushlar noto‘g‘ri talaffuz qilinishi mumkin.

Buzilish sabablari:

O‘tkazilgan yuqumli kasalliklar (otit, nevrologik asoratlar);



Nerv tizimidagi muvozanatsizlik;

Audiotova (eshitish) kamchiligi.

Mos artikulyatsion mashqlar:

“Chig‘anoq” – tilni og‘izda ichkariga burib, ushlab turish;

“O‘rgimchak” – tilni pastga tushirib, keyin yuqoriga harakatlantirish;

“G‘ichirlagan eshik” – “g-g-g” tovushini kuchli nafas bilan chiqarish.

3. Katta guruh (5–6 yosh)

Nutq xususiyatlari: Erkin ifoda qilish, matn asosida hikoya qilish, nutqdagi grammatik birliklarni to‘g‘ri qo‘llash shakllanadi. Ammo murakkab tovush birikmalari, so‘zlarning talaffuzi bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolishi mumkin.

Buzilish sabablari:

Oldingi bosqichlarda to‘g‘ri pedagogik yondashuv bo‘lmaganligi;

Irsiy moyillik;

Miya faoliyatining sustligi yoki keklik (logonevroz).

Mos artikulyatsion mashqlar:

“Traktor” – til uchini tanglayga tekkizib, tez “d-d-d” tovushini chiqarish;

“Tozalovchi” – til uchini yuqori tanglay bo‘ylab chapdan o‘ngga surish;

“Puflama sham” – sham yoki qog‘ozni uzoq masofadan puflash orqali nafasni boshqarish.

Umumiy yondashuvlar

Har bir yosh guruhida logopedik mashg‘ulotlar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Individual yondashuv – har bir bolaning nuqson darajasiga qarab mashqlar tanlanadi;

Ko‘rgazmali usullar – o‘yinchoqlar, rasmlar, kartochkalar, ko‘zgu yordamida mashg‘ulotlar samaradorligi oshiriladi;

Ota-onalar bilan muvofiqlik – mashqlar uy sharoitida davom ettiriladi.

Quyida **nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash uchun haftalik logopedik mashg‘ulotlar rejasi** tuzib berildi. (Bu namunaviy reja.Unga bolani imkoniyatlariga moslab o‘zgarishlar kiritsa bo‘ladi).Reja 5 ish kunini qamrab oladi va har bir kun uchun **artikulyatsion mashqlar, nafas mashqlari, tovush ustida ishlash, va og‘zaki nutqni rivojlantirish** bloklarini o‘z ichiga oladi. Bu reja **4–6 yoshdagi bolalar** uchun mo‘ljallangan.

1-haftalik logopedik mashg‘ulotlar rejasi

Maqsad: Bolaning nutqiy apparatini rivojlantirish, tovush talaffuzini to‘g‘rilash, nafasni boshqarish, og‘zaki nutq faolligini oshirish.



Kun	Artikulyatsion mashqlar	Nafas mashqlari	Tovush ustida ishlash	Og‘zaki nutqni rivojlantirish
Dushanba	“Ot ochiladi”, “Soat”	“Shamni pufla” – uzoq nafas	“S” tovushi ustida ish	Rasmdan hikoya tuzish (hayvonlar)
Seshanba	“Chig‘anoq”, “Daraxt”	“Sharni pufla” – kuchli nafas	“Sh” tovushi bilan so‘zlar	Qarama-qarshi so‘zlar: katta-kichik, qattiq-yumshoq
Chorshanba	“O‘rgimchak”, “G‘ildirak”	“Burun bilan nafas ol, og‘izdan chiqar”	“R” tovushi mashqlari	“Bu nima?” o‘yini – predmet nomlash
Payshanba	“Tozalovchi”, “Traktor”	“Qog‘ozni uchirish” – uzoq nafas	“L” tovushi bilan gap tuzish	Uch so‘zdan iborat gaplar tuzish
Juma	Erkin takroriy mashqlar (tanlov asosida)	Kombinatsiyalangan nafas mashqlari	Kam ishlatiladigan tovushlar (Z, J)	Mini-dialog (Savol-javob o‘yini)

Qo‘shimcha tavsiyalar:

Har bir mashg‘ulot **15–20 daqiqa** davom etadi.

Ko‘zgu ishlatish orqali bola o‘z artikulyatsiyasini kuzatadi.

Nafas mashqlari **faqat ochiq deraza oldida** yoki yaxshi shamollatilgan xonada o‘tkaziladi.

Har dars oxirida **bolani rag‘batlantirish** (yoqimli so‘z, kichik sovg‘a, yulduzcha) motivatsiyani oshiradi.

Quyida **to‘liq dars ishlanmasi** ko‘rinishida tuzilgan namunaviy mashg‘ulot keltiriladi. Bu ishlanma **o‘rta guruh (4–5 yosh)** uchun mo‘ljallangan va interfaol metodlardan biri – **rolli o‘yinlar (“Shifoxonada”)** asosida tuzilgan.

1. “Til va nutq” markazida ta’limiy faoliyat ishlanmasi

Guruh: O‘rta guruh (4–5 yosh)

Mavzu: Doktor va bemor (rolli o‘yin)

Maqsad: Bolalarda ijtimoiy rolning anglash; Muloqotda to‘g‘ri va aniq so‘zlardan foydalanishni o‘rganish; Nutqni og‘zaki muloqot orqali faollashtirish.

Kerakli vositalar: Doktor ko‘zoynagi, fonendoskop, quvnoq niqoblar; O‘yinchoq shprits, termometr, bint; Bemor (qo‘g‘irchoq yoki bola) uchun ko‘rpa, stul; Rasmlar: dori, shifoxona, termometr.

Mashg‘ulot bosqichlari:

1. Tashkiliy qism (3–5 daqiqa)

Salomlashuv;

Ob-havo, kayfiyat so‘rash;

Tarbiyachining savoli: “Bugun sizlar bilan shifokorlar haqida gaplashamiz.”



2. Asosiy qism (15 daqiqa)

A) Suhbat:

Tarbiyachi: “Shifokor kim? U nima qiladi?”

Bolalar javob beradi: “Shifokor kasallarni davolaydi”, “Shifokor issiqlikni o‘lchaydi” va hokazo.

B) Rolli o‘yin: “Shifoxonaga bordik”

Bolalar rollarni tanlaydi (shifokor, bemor, hamshira);

Har bir bola roli asosida gapiradi:

Shifokor: “Salom, nima bo‘ldi?”

Bemor: “Mening qornim og‘riyapti.”

Hamshira: “Mana termometr. Bemorni haroratini o‘lchaymiz.”

C) Nutqiy topshiriq

Tarbiyachi bemor rasmini ko‘rsatadi va savollar beradi:

“U nima bilan og‘rikan?”

“Qanday dori kerak?”

“Qayeri og‘riyapti?”

Yakuniy qism (5 daqiqa)

Bolalar o‘z rollari bo‘yicha his-tuyg‘ularini ifoda etadi;

“Bugun nimalarni o‘rgandik?” savoli orqali qisqa muhokama;

Rag‘batlantirish (yulduzcha, barakalla, qarsak).

Baholash mezonlari:

Ko‘rsatkich	Baholash
Nutqning ravonligi	3 ball – ravon, 2 – ozgina to‘xtalish bilan, 1 – yordam bilan
So‘z boyligi	3 – 5 va undan ortiq so‘z, 2 – 3-4 so‘z, 1 – 1-2 so‘z
Muloqotga kirishuvchanlik	3 – faol, 2 – qatnashdi, 1 – passiv

XULOSA

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida nutqiy nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan tizimli va ilmiy asoslangan ishlarni yo‘lga qo‘yish, ularning keyingi ta‘lim bosqichlariga tayyorligini ta‘minlashda muhim omildir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu borada olib borilayotgan islohotlar, xususan logopedik xizmatlar infratuzilmasining kengaytirilishi, pedagoglar malakasining oshirilishi, inklyuziv yondashuvlarning amaliyotga joriy qilinishi – bu sohaning rivojiga kuchli turtki bermoqda. Shu bois, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida logopedik mashg‘ulotlarning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi” (2019-yil).
3. Soliyeva, M. Sh. “Logopediya asoslari”. – Toshkent: TDPU, 2021.
4. Maxkamova, Z. T. “Nutqiy rivojlanishida og‘ish bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodikasi”. – Samarqand, 2020.
5. Qarshi davlat universiteti rasmiy sayti – www.qarshidu.uz